- 1.14. Birlik sonda qo'llaniluvchi atamalar ko'plik sonda qo'llaniluvchi atamalarga ham, ko'plik sonda qo'llaniluvchi atamalar esa birlik sonda qo'llaniluvchi atamalarga ham tegishlidir.

## **2. Umumiy qoidalar**

- 2.1. Shartnoma ommaviy shartnoma hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 358-moddasi, keyingi o'rinlarda – FK), Ijrochining Veb-sahifasida Shartnoma matnining joylashtirilishi FKning 369-moddasi 2-qismiga muvofiq Ijrochining ommaviy ofertasi hisoblanadi.
- 2.2. Shartnomani tuzish Buyurtmachining Shartnomaga qo'shilishi yo'li bilan, ya'ni Buyurtmachi tomonidan Shartnoma shartlarini to'liq, hech qanday shartlarsiz, istisnalarsiz va izohlarsiz qabul qilish orqali amalga oshiriladi (FKning 360-moddasi).
- 2.3. Buyurtmachining Shartnoma shartlarini qabul qilganligini (aksept qilganligini) tasdiqlovchi holatlar quyidagilardan iborat:
  - 2.3.1. Buyurtmachining Shartnomada belgilangan tartib va shartlarga muvofiq xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishi;
  - 2.3.2. Ijrochining xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirish maqsadida Buyurtmachining iste'mol krediti (kredit (mikroqarz) taqdim etish shartnomasi)) shartnomasini tuzishi;
  - 2.3.3. To'lovni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan xizmatlar uchun birinchi to'lovni amalga oshirishi;
  - 2.3.4. novatsiya.
- 2.4. Shartnoma, uni akseptlash tartibiga rioya etilgan taqdirda, oddiy yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi (FKning 366-moddasi 4–5-qismlari va 370-moddasi 4-qismi).
- 2.5. Tomonlar Shartnoma tuzilgan joy sifatida Ijrochining joylashgan manzilini tan oladilar.
- 2.6. Shartnoma tuzilgan sana sifatida Shartnomani akseptlash sanasi e'tirof etiladi.

## **3. Shartnomaning predmeti**

- 3.1. Shartnomaga muvofiq, Ijrochi Foydalanuvchiga Dasturiy ta'minot, shu jumladan Kursga Onlayn-kirish xizmatlarini (keyingi o'rinlarda – Xizmatlar) taqdim etishni, Buyurtmachi esa ushbu Xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi.
- 3.2. Kursning nomi va dasturi, Dasturdan foydalanish muddati, Xizmatlar narxi Ijrochi tomonidan Veb-sahifada ko'rsatiladi.
- 3.3. Foydalanuvchining so'roviga ko'ra Ijrochi Foydalanuvchiga Kursga / Kursning alohida Modullariga Onlayn-kirishni taqdim etadi / Kirish muddati tugagandan so'ng to'lov evaziga alohida shartnoma doirasida Kurs materiallarini yangilaydi. Bunday shartnoma Ijrochida texnik va yuridik imkoniyat mavjud bo'lganda tuziladi.
- 3.4. Shartnoma maqsadlari uchun Dasturiy ta'minotning funksiyalar to'plami quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:
  - 3.4.1. Dasturiy ta'minot bilan ishlashda Foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish va autentifikatsiya qilish;
  - 3.4.2. Kurslarni matnli so'rovlar bo'yicha qidirish va/yoki parametrlar to'plami bo'yicha filtrlash imkoniyati;
  - 3.4.3. Dasturiy ta'minotda joylashtirilgan Kursning kengaytirilgan tavsifini ko'rish imkoniyati;
  - 3.4.4. Shaxsiy kabinetga kirish va uning funksiyalaridan foydalanish;
  - 3.4.5. Foydalanuvchining shaxsiy kabineti orqali Kursning funksional imkoniyatlaridan foydalanish;
  - 3.4.6. Ijrochi tomonidan belgilangan shartlar va tartibda bonus dasturida ishtirok etish.
- 3.5. Ijrochiga DTning funksional xususiyatlarini belgilash, shuningdek, modifikatsiya, modernizatsiya, konvertatsiya va boshqa usullar orqali DTga o'zgartirishlar kiritish huquqi tegishlidir.
- 3.6. Ijrochi Buyurtmachiga va/yoki Foydalanuvchiga Shartnoma predmetiga aloqador bo'lmagan individual maslahatlarni bermaydi.

## **4. Xizmatlar ko'rsatish muddati**

- 4.1. Ijrochi Foydalanuvchiga Onlayn-kirishni Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay taqdim etadi. Ijrochining ixtiyoriga ko'ra, Onlayn-kirishni taqdim etish muddati 10 (o'n) ish kunigacha uzaytirilishi mumkin.
- 4.2. Xizmatlar ko'rsatilgan sana deb Foydalanuvchiga Onlayn-kirish taqdim etilgan sana hisoblanadi.
- 4.3. Ijrochining Foydalanuvchiga Onlayn-kirishni taqdim etish bo'yicha majburiyatlari, Foydalanuvchining Shaxsiy kabinetda ro'yxatdan o'tganligidan va/yoki Dasturiy ta'minotdan amalda foydalanishidan qat'i nazar, Buyurtmachiga nisbatan bajarilgan deb hisoblanadi.

## **5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

### **5.1. Ijrochi quyidagi majburiyatlarga ega:**

- 5.1.1. Onlayn-kirishni taqdim etish;
- 5.1.2. Buyurtmachi va/yoki Foydalanuvchiga Xizmatlar ko'rsatilishi va/yoki Dasturiy ta'minotning ishlashi, jumladan Kurs bo'yicha axborot yordamini taqdim etish – ish kunlari soat 09:00 dan 18:00 gacha (juma kunlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qisqartirilgan ish kunlarida esa 17:00

gacha). Qo'llab-quvvatlash bo'yicha savollar quyidagi elektron pochta manziliga yuboriladi: [sales@lerna.team](mailto:sales@lerna.team);

5.1.3. agar Dasturiy ta'minotda Ijrochi tomonidan yoki Ijrochining aybi bilan yuzaga kelgan xatoliklar yoki kamchiliklar aniqlansa, ularni bartaraf etish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## **5.2. Ijrochi quyidagi huquqlarga ega:**

5.2.1. Buyurtmachi va (yoki) Foydalanuvchi bilan kelishmagan holda Dasturiy ta'minotga, Kurs mazmuniga (to'liq yoki qisman) o'zgartirishlar kiritish;

5.2.2. Buyurtmachi va/yoki Foydalanuvchi bilan kelishmagan holda Shartnoma shartlarini bajarish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilish;

5.2.3. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq bajarish uchun Buyurtmachi va/yoki Foydalanuvchidan zarur ma'lumotlar va hujjatlarni so'rash;

5.2.4. Veb-sahifada hozirgi narxni joylashtirgan holda Xizmatlar narxini o'zgartirish, bunda Buyurtmachi tomonidan to'lab bo'lingan Onlayn-kirishga nisbatan Xizmatlar narxini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi;

5.2.5. Ijrochining texnik resurslarida zarur rejali profilaktika va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun Dasturiy ta'minotning ishlashini vaqtincha to'xtatib turish;

5.2.6. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun jalb qilinadigan uchinchi shaxslarni almashtirish;

5.2.7. Internet tarmog'ida joylashtirilgan, shu jumladan Ijrochining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy guruhlarida qoldirilgan Buyurtmachining va (yoki) Foydalanuvchining Ijrochi va u ko'rsatadigan Xizmatlar haqidagi fikr-mulohazalaridan, Buyurtmachining to'liq ismini (familiyasi, ismi va otasining ismini) ko'rsatmasdan va Buyurtmachining tasviridan foydalanmasdan, har qanday usulda, shu jumladan, ammo bular bilan cheklanmagan holda, qayta ishlash, qisqartirish, ma'nosini buzmasdan o'zgartirish orqali, bunday fikr-mulohazalarni Ijrochining rasmiy veb-sahifalarida, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida, Ijrochining reklama va boshqa materiallarida, shuningdek, Ijrochining mijozlarga yuboradigan axborot tarqatmalarida joylashtirish maqsadida, foydalanish.

## **5.3. Buyurtmachi quyidagi majburiyatlarga ega:**

5.3.1. Xizmatlar uchun to'lovni Shartnomada belgilangan muddatlarda va shartlarda amalga oshirish;

5.3.2. Xizmatlar ko'rsatilishi uchun zarur bo'lgan to'liq va ishonchli ma'lumotlarni (shu jumladan ro'yxatdan o'tish vaqtida) o'z vaqtida taqdim etish;

5.3.3. Dasturiy ta'minot funksiyalaridan va Kursga Onlayn-kirishdan faqat notijorat maqsadlarda foydalanish yoki Foydalanuvchi tomonidan shu tarzda foydalanishni ta'minlash;

5.3.4. Onlayn-kirish va Autentifikatsiya ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash, ularni Shartnoma bo'yicha Foydalanuvchi bo'lmagan uchinchi shaxslarga taqdim etmaslik;

5.3.5. Agar Autentifikatsiya ma'lumotlari yo'qolsa yoki uchinchi shaxslar tomonidan Onlayn-kirish imkoni noqonuniy tarzda qo'lga kiritilsa, Buyurtmachi va/yoki Foydalanuvchi bu holat haqida darhol Ijrochiga [sales@lerna.team](mailto:sales@lerna.team) manzili orqali xabarnoma yuborish orqali ma'lum qilishi shart; mazkur xabarnoma yuborilguniga qadar amalga oshirilgan barcha harakatlar Buyurtmachi va/yoki Foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi;

5.3.6. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini, shu jumladan Autentifikatsiya ma'lumotlarini Veb-sahifada yoki boshqa tashqi resurslarda joylashtirmaslik, boshqa foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanmaslik va ularni olishga urinmaslik, shuningdek, ushbu majburiyatning Foydalanuvchi tomonidan bajarilishini ta'minlash;

5.3.7. Buyurtmachi va (yoki) Foydalanuvchi tomonidan Dasturiy ta'minot, Kurs bilan ishlashda va (yoki) Internet tarmog'ida turli platformalarda Dasturiy ta'minot va (yoki) Kurs materiallarini va (yoki) Ijrochini muhokama qilishda axloqiy me'yorlarga rioya qilinishini ta'minlash, shu jumladan umumiy chatlarda Kurs mavzusiga tegishli bo'lmagan xabarlarni qoldirmaslik (keraksiz, mavzuga aloqasiz yoki takroriy xabarlarning yuborilishiga yo'l qo'yimaslik), boshqa foydalanuvchilar, jalb qilingan ekspertlar, uchinchi shaxslar, Ijrochining xodimlariga nisbatan hurmatsiz so'zlar va haqoratlariga yo'l qo'yimaslik;

5.3.8. Dasturiy ta'minotdan yoki boshqa vositalardan ruxsatsiz Onlayn-kirish, shuningdek, Ijrochining Dasturiy ta'minotida joylashtirilgan ma'lumotlardan ularni to'plash, yo'q qilish, bloklash, o'zgartirish, nusxalash, tarqatish maqsadida foydalanmaslik, shuningdek, Dasturiy ta'minotga nisbatan boshqa noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etmaslik;

5.3.9. o'z uskunalarining dasturiy-apparat talablariga, shuningdek, agar ular o'rnatilgan bo'lsa, Internet aloqa kanalining o'tkazuvchanlik qobiliyatiga qo'yiladigan talablarga muvofiqqligini ta'minlash.

## **5.4. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:**

5.4.1. Shartnomaning butun amal qilish muddati davomida Xizmatlarni ko'rsatish tartibi va Dasturiy ta'minotning ishlashi bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot yordamini olish;

5.4.2. Ijrochidan Foydalanuvchining Onlayn-kirishga oid ma'lumotlarni, shuningdek, Shaxsiy kabinetda ko'rsatiladigan ma'lumotlarni so'rash;

5.4.3. Shartnoma predmeti va/yoki Dasturiy ta'minotning ishlashi bilan bog'liq e'tirozlar, takliflar va (yoki) fikr-mulohazalarni Ijrochiga yuborish.

## **6. Xizmatlar narxi va to'lov tartibi. Xizmatlarni topshirish-qabul qilish**

6.1. Xizmatlar narxi Veb-sahifada va (yoki) Hisobvaraqa ko'rsatiladi.

6.2. Ijrochi Kibernetikada innovatsiyalar IT-parki rezidenti sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan. Ijrochi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 15-iyun kuni qabul qilingan PQ-4751-sonli «O'zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda 2017-yil 30-iyun kuni qabul qilingan PF-5099-sonli «Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga muvofiq QQS to'lovidan ozod qilingan.

6.3. Buyurtmachi xizmatlar uchun to'lovni 100 % oldindan to'lash shartlari asosida, Veb-sahifada ko'rsatilgan usullar orqali Ijrochining hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi. To'lovni amalga oshirish va pul mablag'larini qaytarishning batafsil tartib-qoidalari Shartnomaga 1-ilovada keltirilgan.

6.4. Buyurtmachi Ijrochi Xizmatlari uchun to'lovni iste'mol kredit shartnomasi (kredit (mikroqarz) taqdim etish shartnomasi) asosida berilgan pul mablag'lari hisobidan amalga oshirish huquqiga ega. Ijrochi Buyurtmachiga kreditni (mikroqarz) taqdim etish shartlari, shuningdek Buyurtmachiga kredit (mikroqarz) taqdim etishni rad etilganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

6.5. Ijrochining hisob raqamiga pul mablag'lari kelib tushgan sana to'lov sanasi hisoblanadi.

6.6. Xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi dalolatnoma (keyingi o'rinlarda – Dalolatnoma) va hisobvaraqa-faktura Buyurtmachining talabiga ko'ra taqdim etiladi. Buyurtmachi talab qilganda, Buyurtmachi Xizmatlar ko'rsatilgan oydan keyingi oyning 10 (o'ninchi) sanasidan kechiktirmay Dalolatnoma va hisobvaraqa-fakturani imzolashi hamda Dalolatnoma va hisobvaraqa-fakturaning 1 (bir) nusxasini Ijrochiga qaytarishi shart. Agar Dalolatnoma va hisobvaraqa-faktura keyingi oyning 10 (o'ninchi) sanasigacha Buyurtmachi tomonidan imzolanmagan va (yoki) e'tiroz bildirilmagan bo'lsa, ular Buyurtmachi tomonidan imzolangan hisoblanadi. Ijrochi Buyurtmachi - jismoniy shaxsga Dalolatnoma va hisobvaraqa-fakturani yubormaslikka haqli. Bunda Shartnoma bo'yicha Xizmatlar Foydalanuvchiga Onlayn-kirish taqdim etilgandan so'ng to'liq hajmda ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

## **7. Tomonlarning javobgarligi. Javobgarlikni cheklash**

7.1. Buyurtmachi tomonidan Shartnomaning intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni tartibga soluvchi shartlari (Shartnomaning 9-bo'limi) yoki uchinchi shaxslarga Kurs materiallariga Onlayn-kirishni taqdim etmaslik majburiyatlari (Shartnomaning 5.3.4-bandi) buzilganda, Buyurtmachi Ijrochining yozma talabiga ko'ra har bir qoidabuzarlik uchun 10 000 000 (o'n million) so'm miqdorida jarimani suddan tashqari tartibda to'lashi shart.

7.2. Buyurtmachi (va tegishli hollarda — Foydalanuvchilar) tomonidan Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda, Ijrochi Xizmatlar uchun to'langan pul mablag'lari Buyurtmachiga qaytarmagan holda Onlayn-kirishni deaktivatsiya qilish, shuningdek, Shaxsiy kabinetni bloklash huquqiga ega.

7.3. Ijrochi quyidagilar uchun javobgar emas:

7.3.1. uchinchi shaxslar va (yoki) Buyurtmachi hamda Foydalanuvchilar tashabbusi bilan yaratilgan messenjer chatlarida (jumladan, ammo ular bilan cheklanmagan holda WhatsApp, Viber, Telegram) joylashtirilgan axborotning mazmuni, shuningdek, bunday chatlarda Buyurtmachi tomonidan xabar qilingan shaxsiy ma'lumotlardan uchinchi tomonlarning foydalanishi uchun;

7.3.2. Autentifikatsiya ma'lumotlarining yo'qolishi va (yoki) oshkor qilinishi oqibatida Buyurtmachiga yetkazilgan har qanday turdagi zarar uchun;

7.3.3. Internet tarmog'iga ulanish sifati hamda Buyurtmachi va (yoki) Foydalanuvchilarning uskunalari va dasturiy ta'minotining ishlashi uchun;

7.3.4. Buyurtmachi va (yoki) Foydalanuvchilar uskunalarining texnik xususiyatlari Dasturiy ta'minotdan foydalanish va (yoki) Kurs materiallarini namoyish etish uchun qo'yiladigan talablarga mos kelmasligi uchun, agar bunday talablar belgilangan bo'lsa;

7.3.5. Buyurtmachi Shartnoma bo'yicha o'zi tanlagan xizmatlarni to'lash shaklidan foydalanganligi (foydalana olmaganligi) va uning har qanday oqibatlari uchun, Xizmatlarga haq to'lashda ishtirok etuvchi banklar yoki uchinchi shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) uchun;

7.3.6. Xizmatlarning Mijozning umidlariga mos kelmasligi uchun.

7.4. Ijrochi Dasturiy ta'minot ishidagi uzilishlar va nosozliklarning oldini olish uchun barcha oqilona sa'y-harakatlarni amalga oshiradi, biroq uning uzluksiz ishlashini kafolatlamaydi, agar Onlayn-kirish Ijrochi tomonidan jalb qilinmagan uchinchi shaxslar tomonidan tashkil etilgan bo'lsa, Onlayn-kirish uchun zarur bo'lgan xizmatlarning (xususan, ma'lumotlarni uzatish xizmatlarining) sifatsizligi tufayli yuzaga kelgan zararlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi va bunday zararlarini qoplaymaydi.

## **8. Favqulodda holatlar**

8.1. Tomonlardan birida favqulodda (kutilmagan, nazorat qilib bo'lmaydigan, oldini olib bo'lmaydigan va bartaraf etib bo'lmaydigan) holatlar yuzaga kelganda va buning natijasida Tomonlar Shartnoma bo'yicha yuzaga keluvchi majburiyatlarni bajara olmasalar, Tomonlardan hech biri Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi va ushbu majburiyatlarni bajarish ko'rsatilgan favqulodda holatlarning amal qilish muddatiga kechiktiriladi.

8.2. Agar favqulodda holatlarning tabiati va davomiyligi natijasida Tomonlardan birining Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishi maqsadga muvofiq bo'lmasa, Shartnoma Tomonlarning kelishuvi bilan bekor qilinishi mumkin.

## **9. Intellektual mulk. Maxfiylik. Shaxsiy ma'lumotlar**

9.1. Ijrochi tomonidan Buyurtmachi va (yoki) Foydalanuvchilarga Xizmatlar ko'rsatish doirasida Ijrochining va (yoki) Ijrochi bilan tegishli shartnomalar / kelishuvlar tuzgan uchinchi shaxslarning intellektual mulkiga kirish huquqi taqdim etiladi.

9.2. Buyurtmachi va (yoki) Foydalanuvchi intellektual mulkga doir quyidagi majburiyatlarga ega:

9.2.1. Ijrochining va (yoki) uchinchi shaxslarning Intellektual mulkka bo'lgan huquqlarini buzadigan har qanday harakatlardan, xususan, har qanday Intellektual mulkdan nusxa olmaslik, yozib olmaslik, ijro etmaslik, ko'paytirmaslik, har qanday shaklda tarqatmaslik, qayta ishlamaslik, hosila asarlarni yaratish uchun foydalanmaslik;

9.2.2. Intellektual mulk huquqlari buzilganligi haqidagi barcha ma'lum bo'lgan faktlarni darhol Ijrochiga oshkor qilish.

9.3. Buyurtmachi va (yoki) Foydalanuvchilar Xizmatlarni ko'rsatish davomida ma'lum bo'lgan Maxfiy axborotni (barcha uchun umumiy foydalanishga taqdim etilgan ma'lumotlardan tashqari) Ijrochining oldindan yozma roziligisiz uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

9.4. Ijrochi o'zining marketing va (yoki) reklama materiallarida Kurs davomida Foydalanuvchi tomonidan yaratilgan obyektlardan foydalanish huquqiga ega.

9.5. Buyurtmachi Shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq ravishda Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini Ijrochiga taqdim etadi va Shartnoma doirasida Buyurtmachi tomonidan Ijrochiga taqdim etilgan har qanday shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash Ijrochi tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarining buzilishiga olib kelmasligini tasdiqlaydi.

## **10. Shartnomaning amal qilish muddati. Nizolarni hal etish**

10.1. Shartnoma Buyurtmachi tomonidan 2.3-bandda nazarda tutilgan harakatlar bajarilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va Tomonlar o'z majburiyatlarini bajargunga qadar amal qiladi.

10.2. Ijrochi Buyurtmachini oldindan xabardor qilmagan holda Shartnoma shartlarini o'zgartirishga, yangi shartlarni yoki Shartnomaga ilovalarni kiritishga haqli. Buyurtmachi bunday o'zgarishlar bo'lishi mumkinligini bila turib, ularning amalga oshirilishiga rozilik bildiradi. Agar Buyurtmachi Shartnoma shartlarini ijro etishda davom etsa, shu jumladan o'zgartirishlardan keyin Dasturiy ta'minotdan har qanday foydalanishni davom ettirsa, bu uning bunday o'zgarishlarga roziligini anglatadi.

10.3. Shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar matni yoki uning yangi tahriri Ijrochi tomonidan tegishli ma'lumotlarni Veb-sahifaga joylashtirish orqali barchaga yetkaziladi.

10.4. Tomonlar sukut saqlash (Shartnomaning alohida bandlariga, jumladan tariflarning o'zgarishiga norozilik haqida yozma xabarlarining yo'qligi) Buyurtmachining yangi tahrirdagi Shartnomaga roziligi va unga qo'shilishi hisoblanishiga so'zsiz rozilik bildiradilar (FKning 105-moddasi, 2-qismi).

10.5. Shartnoma Tomonlarning kelishuviga ko'ra bekor qilinishi mumkin.

10.6. Shartnoma bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

10.7. Tomonlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar, da'volar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

10.8. Agar nizolarni yuqorida ko'rsatilgan tartibda hal qilish imkoni bo'lmasa, Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda sudga murojaat qiladilar, bunda nizoni hal etishning sudgacha bo'lgan tartibiga rioya qilinishi majburiy hisoblanadi.

10.9. Shartnoma doirasida e'tirozlar mavjud bo'lgan taqdirda, Buyurtmachi Ijrochining Shartnomada ko'rsatilgan pochta manziliga imzolangan sudgacha bo'lgan e'tirozni yuborish huquqiga ega. E'tirozga javob qaytarish muddati — Ijrochi tomonidan e'tiroz qabul qilingan kundan boshlab 14 kunni tashkil etadi.

10.10. Tomonlar elektron aloqa vositalari yoki Shaxsiy kabinet orqali yuborilgan hujjatlarning yuridik kuchga ega ekanligini tan oladilar.

## **11. Ijrochining rekvizitlari**

### **«UBRAINS» MChJ**

O'zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent  
shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Lashkarbegi MFY,  
Mustaqillik ko'chasi, 65-uy  
ro'yxatdan o'tish raqami: 982705,  
STIR: 308432936

Asosiy hisob raqami: 20208000505381703001

«ORIENT FINANS» XATB Mirobod BXMda,

Bank kodi (MFO): 01071,

Bankning STIRi: 207086151

### **To'lovni amalga oshirish va pul mablag'larini qaytarish qoidalar**

To'lovni amalga oshirish va pul mablag'larini qaytarishning ushbu qoidalar (keyingi o'rinlarda – Qoidalar) Ijrochi va Buyurtmachi o'rtasidagi Shartnoma bo'yicha Xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish va pul mablag'larini qaytarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

1. Xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish naqd pulsiz tartibda, Veb-sahifada ko'rsatilgan usullardan biri orqali, Buyurtmachining tanloviga ko'ra, Ijrochining hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2. Internet orqali to'lovlarni amalga oshirishda VISA, MasterCard kartalari (keyingi o'rinlarda – bank kartalari) to'lov uchun qabul qilinadi. To'lovlarni amalga oshirish VISA va MasterCard xalqaro to'lov tizimlari (keyingi o'rinlarda – to'lov tizimlari) qoidalariga muvofiq tekshirish, shifrlash va ma'lumotlarni yopiq aloqa kanallari orqali uzatishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda, to'lovni amalga oshirishning maxfiyligi va xavfsizligiga rioya qilish tamoyillari asosida amalga oshiriladi. To'lov tizimlari orqali to'lovni amalga oshirish qoidalar va tartibi masalalari bo'yicha Buyurtmachi tegishli to'lov tizimlari qoidalariga amal qiladi hamda to'lov tizimlarining tegishli operatorlariga bevosita murojaat qilib, tushuntirishlar va maslahatlar oladi. Ijrochi o'z vakolatlari doirasida to'lov tizimlari yordamida Xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishda axborot yordamini ko'rsatish huquqini o'zida saqlab qoladi, ammo ushbu ilovada hech narsa uni bunday axborot yordamini taqdim etishga, berilgan ma'lumotlarning to'liqligiga javobgar bo'lishga yoki Buyurtmachi tomonidan Xizmatlar uchun to'lov usulini va (yoki) to'lov tizimini tanlanishidan kelib chiqadigan boshqa oqibatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga majbur etmaydi.

3. Xizmatlarga to'lovni bank kartasi bilan amalga oshirish uchun Xizmatga istalgan qulay usulda buyurtma berish kerak: aloqa telefon raqamiga qo'ng'iroq qilish yoki Veb-sahifada ariza qoldirish mumkin. Ijrochi Buyurtmachiga buyurtma to'lovi uchun havoani yuboradi.

4. Buyurtma uchun to'lov bank kartasi rekvizitlarini kiritish uchun havola bo'yicha o'tgandan va to'lov tizimi operatori va/yoki tegishli bankning himoyalangan to'lov sahifasiga yo'naltirilgandan so'ng amalga oshiriladi. To'lov sahifasiga ulanish va ma'lumotlarni uzatish 3D Secure texnologiyasidan foydalangan holda himoyalangan rejimda amalga oshiriladi. Bank kartasi ma'lumotlarini kiritish sahifasida Buyurtmachi bank kartasi ma'lumotlarini kiritishi kerak: karta raqami, karta egasining ismi, kartaning amal qilish muddati, uch xonali xavfsizlik kodi (VISA uchun CVV2 yoki MasterCard uchun CVC2). Barcha kerakli ma'lumotlar kartaning o'zida ko'rsatilgan. Uch xonali xavfsizlik kodi - bu kartaning orqa tomonidagi uchta raqam. Agar Buyurtmachining banki MasterCard SecureCode, Verified by Visa internet to'lovlarini xavfsiz amalga oshirish texnologiyasini qo'llab-quvvatlasa, to'lovni amalga oshirish uchun maxsus parolni kiritish talab etilishi mumkin.

5. Buyurtmachi bank kartasining ma'lumotlari Ijrochining serverida yoki Veb-sahifada saqlanmaydi, Ijrochi Buyurtmachining to'lov rekvizitlariga kirish huquqiga ega emas. Buyurtmachi tomonidan xabar qilinadigan axborotning, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlar va to'lov rekvizitlarining maxfiyligi tegishli to'lov tizimining operatori va/yoki Buyurtmachining banki tomonidan ta'minlanadi. Buyurtmachi tomonidan kiritilgan ma'lumotlar, shu jumladan to'lov rekvizitlari, bank kartasi ma'lumotlari uchinchi shaxslarga taqdim etilmaydi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

6. To'lovni amalga oshirish bank tomonidan, shu jumladan, quyidagi hollarda rad etilishi mumkin:

6.1. bank kartasi internet orqali to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallanmagan bo'lsa; Buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchi bankka murojaat qilib, bu haqida bilib olishi mumkin.

6.2. bank kartasi bilan to'lash uchun mablag'lar yetarli emas. Bank kartasida mablag'lar mavjudligi haqida batafsil Buyurtmachi tegishli bank kartasini chiqargan bankka murojaat qilish orqali bilishi mumkin;

6.3. bank kartasi ma'lumotlari xato kiritilgan;

6.4. bank kartasining amal qilish muddati tugagan. Kartaning amal qilish muddati, qoidaga ko'ra, kartaning old tomonida ko'rsatiladi (bu karta amal qiladigan oy va yil). Kartaning amal qilish muddati haqida batafsil ma'lumotni Buyurtmachi tegishli bank kartasini chiqargan bankka murojaat qilish orqali olishi mumkin.

7. Apple Pay orqali to'lovni amalga oshirishda (agar bunday usul Veb-sahifada ko'zda tutilgan bo'lsa), «Wallet» ilovasidan kartani tanlash va ilovada tanlangan usulga qarab kod-parol yoki boshqa autentifikatsiya usulidan foydalanish kerak.

8. Buyurtmani Samsung Pay orqali rasmiylashtirishda (agar bunday usul Veb-sahifada ko'zda tutilgan bo'lsa) «Samsung Pay orqali to'lash» tugmasini bosish, Samsung Account-ni tanlash va smartfonda xaridni tasdiqlash lozim (barmoq izi, qorachiq yoki Samsung Pay PIN-kod orqali).



9. Ijrochi to'lov tizimining va/yoki bankning dasturiy-apparat kompleksini nazorat qilmaydi. Agar qandaydir xatolar natijasida Buyurtmachining pul mablag'lari hisobdan chiqarilgan bo'lsa, biroq to'lov tizimi va/yoki bank tomonidan to'lovga ruxsat berilmagan bo'lsa, pul mablag'larini Buyurtmachiga qaytarish majburiyati to'lov tizimi operatori va/yoki tegishli bank zimmasiga yuklatiladi.

10. Buyurtmachi tomonidan to'langan pul mablag'lari quyidagi hollarda qaytarilishi mumkin:

10.1. Ijrochining aybi bilan xizmat belgilangan muddatda ko'rsatilmagan bo'lsa;

10.2. Buyurtmachi Xizmat ko'rsatish boshlanishidan oldin Shartnomadan voz kechish va pul mablag'larini qaytarish to'g'risidagi xabarnoma bilan murojaat qilgan bo'lsa;

10.3. Qoidalarining 14-bandida ko'rsatilgan hollarda.

11. Buyurtmachi tomonidan to'langan pul mablag'larini to'liq yoki qisman qaytarish Ijrochining [ret@skillbox.team](mailto:ret@skillbox.team) elektron pochta-siga yuborilgan Buyurtmachining yozma arizasi asosida Ijrochi tomonidan amalga oshiriladi, bunda arizaning asl nusxasi Ijrochining quyidagi pochta manziliga yuboriladi: O'zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Lashkarbegi MFY, Mustaqillik ko'chasi, 65-uy.

Ijrochi Buyurtmachidan pul mablag'larini qaytarish to'g'risidagi arizaning tasdiqlangan shaklini to'ldirishni talab qilishga haqli.

12. Qoidalarining 10.1. va 10.2. bandlarida nazarda tutilgan hollarda pul mablag'larini qaytarish Shartnoma bo'yicha Xizmatlar ko'rsatilganligi uchun Ijrochining hisob raqamiga kelib tushgan pul mablag'lari miqdorida amalga oshiriladi. Pul mablag'larini o'tkazishda to'lov tashkilotlari, banklar (mikromoliya tashkilotlari) tomonidan ushlab qolinadigan komissiya miqdorlari Ijrochining haqiqatda amalga oshirgan xarajatlari hisoblanadi va Buyurtmachiga qaytarilmaydi.

13. Buyurtmachi bilan hisob-kitoblar Xizmatlar uchun to'lov amalga oshirilgan shaklda: agar to'lov shaxsiy pul mablag'laridan foydalangan holda amalga oshirilgan bo'lsa, Buyurtmachining bank hisob raqamiga yoxud agar to'lov qarz mablag'laridan foydalangan holda amalga oshirilgan bo'lsa, bank (mikromoliya tashkiloti) manziliga amalga oshiriladi.

Ijrochi iste'mol krediti shartnomasiga (kredit (mikroqarz) taqdim etish shartnomasi) muvofiq Buyurtmachi to'lashi lozim bo'lgan pul mablag'laridan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlar summasini Buyurtmachiga qoplab bermaydi.

14. Agar Shartnoma bo'yicha Xizmatlar ko'rsatilgan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida Buyurtmachi/Foydalanuvchi tanlangan Kursga qiziqishini Ijrochi tomonidan Shartnoma shartlarining buzilishi bilan bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yo'qotgan bo'lsa, Buyurtmachi to'langan mablag'larning bir qismini Buyurtmachining murojaat sanasidagi Foydalanuvchining shaxsiy kabinetida aks ettirilgan ma'lumotlarga mutanosib ravishda, biroq ko'rsatilgan Xizmat uchun to'langan pul mablag'larining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda, qaytarishni so'rab murojaat qilishga haqli. Buyurtmachining bunday arizasi FK 356-moddasining 3-qismiga muvofiq narxni o'zgartirish to'g'risidagi ariza hisoblanadi. Bunda Kursga Onlayn-kirish to'xtatiladi.

Agar Xizmatlar uchun to'lov iste'mol krediti shartnomasiga (kredit (mikroqarz) taqdim etish shartnomasi) muvofiq taqdim etilgan pul mablag'laridan foydalangan holda amalga oshirilgan bo'lsa, qaytarish summasi Ijrochi tomonidan olingan pul mablag'lari summasidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

15. Ijrochi tomonidan Onlayn-kirish huquqi taqdim etilgan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun o'tgach, narxni o'zgartirish va pul mablag'larini qaytarish amalga oshirilmaydi.

16. Ijrochining pul mablag'larini qaytarish bo'yicha majburiyati Ijrochining hisob raqamidan pul mablag'lari hisobdan chiqarilgan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi. Pul mablag'larini Buyurtmachining hisob raqamiga o'tkazishning aniq muddati Buyurtmachining bank kartasini chiqargan bankka va/yoki kredit (mikroqarz) bergan (bergan) bankka (mikromoliya tashkilotiga), agar Ijrochining xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirish iste'mol krediti shartnomasiga (kredit (mikroqarz) taqdim etish shartnomasi) muvofiq taqdim etilgan pul mablag'laridan foydalangan holda amalga oshirilgan bo'lsa, bog'liq bo'ladi.

17. Kursga Onlayn-kirish Ijrochi tomonidan pul mablag'larini qaytarish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida to'xtatiladi.